

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashev

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

ТАРИХ**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



UO'K: 001.8

ILMIY QADRIYATLARNING INSON AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ НАУЧНЫХ ЦЕННОСТЕЙ НА НРАВСТВЕННЫЙ И ДУХОВНЫЙ РОСТ ЧЕЛОВЕКА

THE INFLUENCE OF SCIENTIFIC VALUES ON HUMAN MORAL AND SPIRITUAL GROWTH

Sayitxonov Akmalxon Axatjonovich
Farg'ona davlat universiteti f.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilmiy qadriyatlarning insonni axloqiy va ma'naviy taraqqiy etishida va kishilik jamiyati rivojidagi o'mni tahlil qilingan. Tarixdan ma'lumki, barcha rivojlangan jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivoji, albatta, ilm va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Albatta, ilm va ma'rifat jamiyatning ilmiy-texnik va iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Biroq ilmiy qadriyatlar xalqni, millatni va insonning axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье анализируется роль научных ценностей в нравственном и духовном развитии человека и в развитии человеческого общества. Из истории известно, что экономическое, политическое и культурное развитие всех развитых обществ тесно связано с наукой и нравственными ценностями. Конечно, наука и просвещение играют важную роль в научно-техническом и экономическом развитии общества. Однако научные ценности оказывают большое влияние на народ, нацию, нравственное и духовное развитие человека.

Abstract

This article analyzes the role of scientific values in the moral and spiritual development of a person and in the development of human society. It is known from history that the economic, political and cultural development of all developed societies is closely related to science and moral values. Of course, science and enlightenment are important in the scientific, technical and economic development of society. However, scientific values have a great influence on the people, the nation, and the moral and spiritual development of a person.

Kalit so'zlar: ilmiy qadriyat, intellektual salohiyat, ilm va axloq, insoniy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, tafakkur rivoji, ma'naviy rivojlanish.

Ключевые слова: научная ценность, интеллектуальный потенциал, наука и мораль, общечеловеческие ценности, критическое мышление, развитие мышления, духовное развитие.

Key words: scientific value, intellectual potential, science and morality, human values, critical thinking, development of thinking, spiritual development.

KIRISH

Ilm-fanni ilmiy qadriyat sifatida anglash, fuqarolik jamiyati rivojidagi hech bir soha vakiliga, biror-bir toifaga yoki millatga alohida berilgan in'om etilgan imtiyoz emas, bu mavjudodlar gultojisi hisoblangan insonning huquqidir. In'om etilgan bu huquqdan samarali foydalanish uchun insonlardan intellektual salohiyat, mantiqiy fikrlash, tanqidiy mushohada qilib qobiliyati hamda albatta adolat bilan ish ko'rish va haqiqatga har doim tik boqish talab etiladi. Insonlar o'zlarida mavjud bo'lgan tug'ma intellektual (aqliy) qibiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun bolalik chog'laridanoq ilm-fanga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydilar. Ilm-fanni qadriyat sifatida anglaydigan va unga o'z umrini bag'ishlagan insonlar ilm-fanga – ijtimoiy go'zal hayot kechirish, bu dunyoda farovon va to'q yashashning asosiy omili sifatida qaramaydilar. Balki aksincha, o'zlarini mashaqqatlari mehnatga giriftor etadilar va ilmda erishgan har bir yangilikdan, zavq-u shavq oladilar va faoliyatidan huzur topadilar.

Mustaqil O'zbekistonimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi ijtimoiy jarayonlarni falsafiy nuqtaiy nazar bilan tahlil qilish, jamiyat va kishilar faoliyatiga sezilarli tarzda ijobjiy ta'sir etish ilmiy qadriyat egasining aqliy salohiyatini hamda imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bu borada taniqli professor S.Shermuhammedov, "Falsafa muayan hayot va madaniy hayotning eng muhim asosiy qadriyatları haqida yagona umumbashariy tasavvurlarni hosil qilish bilan birga, ana shu taraqqiyot sivilizatsiya uchun abadiy, mangu, sira o'lmas qadr-qimmatga ega ekanligini asoslاب.

FALSAFA

isbotlab beradi”[1] degan fikrni bildirgan. Qadimdan ilmiy qadriyatga ko’plab va turlicha yondoshuvlar bor. Ilmning asl mohiyati esa adolatga va haqiqatga intilishidadir. Ilmiy tadqiqot olib borish, ilmiy izlanishlar insonning aql doirasini kengaytiradi, tafakkur olamini sayqallaydi natijada axloqiy qadriyatlar rivojlanishiga o’z hissasini qo’shadi. Ilmiy bilmlar insonda mas’uliyat hissini oshiradi, chunki haqiqiy bilmaga ega insonlar o’zining va boshqalarning xatti-harakatilari uchun ham javobgarlik hisini tuyadi. Shuningdek, ilm insonda adolatga, haqiqatga va rostgo’ylikka intilishni shakllantiradi.

Ilmiy qadriyatlar keng qamrovli fundamental falsafiy tushunchadir. Bu tushuncha fandagi vorisiylik, an’anaviylik, novatorlikni asoslarini dialektik tarzda uug’unlashtiradi. Ilmiy qadriyatlar tarkibi shu bugunga qadar insoniyat tomonidan boyitilib kelingan, jumladan O’rtta Osiyo allomalarining o’lmas falsafiy asralarini kiritish mumkin. Har qanday ilm bilan shug’ullanuvchi inson muayyan fan tarixini puxta o’rganmay, yetuk, faylasuf olimlarning, ulug’ mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ilmiy nazariya va ilmiy bilish metodlariga tayanmay turib, muayyan fan sohasida yangilik hamda kashfiyot yarata olmaydi. Biroq tabiatan tanqidiy fikrlashga odatlangan inson (ilmiy izlanuvchi, olim) ilmiy merosni o’rganishda, tahlil qilishda, ilmiy bilishning zamonaviy, konseptual usullarini qo’llay olsagina biron bir yutuqqa erishishi mumkin. Mantiq qonunlari ilm a’hillarini muayyan xatolardan, yanglishishlardan qutqaruvchi metodik quroldir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson va jamiyatning ma’naviy-axloqiy kamolotida ilmiy qadriyatlarning ta’siri to’g’risidagi qarashlar O’rtta Osiyolik mutafakkirlarning asarlarida ham keng yoritilgan. Ko’plab mutaffakirlar ilmiy qadriyatlarni o’tmisht va kelajak avlodlarining ma’naviy taraqqiyot bosqichlarini bog’lovchi zanjir, kishini ruhan, axloqan poklovchi va ezzulikka da’vat etuvchi muhim vosita sifatida tavsiflaganlar. Jumladan, Abu ali Ibn Sino ilm va ma’naviyatning uyg’unligi haqida ko’p yozgan. Uning o’zining “Kitob ash-Shifo” asarida, “inson faqat ilm orqali ma’naviy kamolotga erishish mumkin, chunki ilm insonni o’zini va dunyoni anglashga yo’naltirilgan”[2] deb ta’kidlagan. Ushbu asarda insonning axloqiy va ma’naviy rivojlanishi ilm bilan uyg’un bo’lishligi haqida ko’plab ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Averroes nomi bilan mashhur bo’lgan Ibn Rushd ma’naviyat va ilm o’rtasidagi aloqani o’rganib, insonning mukammal shaxs sifatida rivojlanishida ilmni markaziy o’ringa qo’ygan. U “insonning ma’naviy va axloqiy barkamolligi uchun ilm va aql bilan yo’l topish muhim”[3] deb fikr bildirgan. Bu bilan ilmning ma’naviy qadriyatlar bilan bevosita bog’liqligini ko’rsatib bergen. Shvetsariyalik psixolog Karl Yung ma’naviyat va ilm o’rtasidagi bog’liqlikni o’rgangan va insonning ma’naviy rivojlanishida axloqiy qadriyatlarni ahamiyatini ta’kidlagan. Karl Yung “ilm insonning ichki dunuosini tadqiq qilishga xizmat qilishi kerak, chunki insonning ma’naviy barkamolligi uning ruhiy muvozanati va ichki tozaligi bilan belgilanadi” [4] deya e’tirof etgan. Bu fikr bilan ma’naviyat va ilm o’rtasidagi o’zaro ta’sir haqidagi qarashlarni qo’llab-quvvatlaydi. Ilm va axloq o’rtasidagi bog’liqlik, insonning to’g’ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi, insonning ilmiy bilimi uni hayoti va faoliyati davomida axloqiy tanlovlardan qilishda yordam beradi va ma’naviy yuksalishiga sabab bo’ladi.

Ilmiy qadriyatlar insonni komillik sari etaklovchi muhim omil bo’lib, ushbu qadriyatlar orqali insonlarda axloqiy sifat va ma’naviy fazilatlar shakllanadi. Ta’lim ma’lum darajada insonni tafakkurida ikkilanishni vujudga keltirishi mumkin, uning uchun qiyinchiliklar tug’diradi, ammo tizimli ta’lim olish esa, bu shubha gumonlarni qanday hal bartaraf etish yo’llarini ochib beradi. Shuningdek, murakkab ijtimoiy masallarni ilmiy asosda hal etishni ham ko’rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar jamiyatning o’ziga xos g’oya va qarashlari bilan shakllanadi. Ilm-fan taraqqiyoti ma’naviy yutuqlar bilan uyg’un bo’lganda, insonning ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, meditsina va farmaseftika sohasidagi izlanishlar inson salomatligiga qaratilgan bo’lib, har qanday insonni hayotini (umrini, salomatligini) yaxshilash va ta’minlashdan iboratdir. Bu sohadagi izlanish insonga hayotga bo’lgan qiziqishini, o’z hayotining qadriga olloh tomonidan berilgan ne’mat ya’ni o’z umrini e’zozlashga ham o’rgatadi. Ilmning insoniy qadriyatlar bilan uyg’unligi natijastida insonda ijtimoiy mas’uliyat, fidoyilik, samimiylik va boshqa fazilatlarga nisbatan hurmat hissi kuchayadi.

Individning shaxs bo’lib shakllanishida ilmning o’ni katta. Ilm insoni o’ziga bo’lgan, iste’dodiga bo’lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda insonni hayotda, muayyan sohada o’z o’rniga ega bo’lishiga yordam beradi. Ilm ahli insonlarga faqatgina bilim emas, balki jamiyat uchun mas’uliyatni ham ularashadi. Ilmiy ahli atrofdagi kishilarga nafaqat ziyo tarqadadi, balki ularning axloqiy tarbiyasiga ham ta’sir ko’rsatadi. Yangi taraqqiyot bosqichida jamiyat taraqqiyotining jadallahushi barkamol

insonni shakllantirish jarayoniga bevosita bog'liq. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoev "Albatta, biz angi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poyydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun bu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor" [5] deb ta'kidlaydi. Bunda, inson hayotining tarkibiy qismi hisoblangan ilmiy qadriyatlar muhim rol o'yaydi.

Darhaqiqat, ma'naviy barkamol, axloqan etuk yosh avlodni shakllantirish orqali mamlakatimizda ilm-fanni yuqori darajaga ko'tarish davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan siyosiy va dolzarb masalalardan biridir. Jahanada fan-texnikaning taraqqiyoti, qisqa muddatlarda yangilanishi va dunyoda globallashuvi jarayonlarini shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bunga dialektik tarzda inson bilimi, uning intellektual salohiyati ham rivojlanib boradi. Ilmiy qadriyatlarning turi ortib borishi natijasida insonning aqlu-zakovati, fikrlash qobiliyati, ma'naviyati va tafakkurini boyib borishi uchun innovatsion shart-sharoitlar, imkoniyatlar vujudga keladi. Farvon turmush tarzini maqsad qilgan insonga bilim olishi ijtimoiy ehtiyojga aylanadi. Ilm olishga intilish va qiziqish inson tafakkurini, mas'uliyat hissini, fikrlash qobiliyatini hamda ma'naviy hayotini yuksaltiradi. Bu ilmiy qadriyatlarning rivoji ta'sirida yuz beradi.

XULOSA

Ilmiy qadriyatlar nafaqat insonning axloqiy va ma'naviy yuksalishiga, balki, jamiyat taraqqiyotida, ma'naviy olamning ijobiylashuvida, insonning tafakkur taraqqiyoti qonunlarini kashf etishida, voqeа va hodisalarga falsafiy mushohada bilan yondashish ko'nikmalarini tarkib tortirishda samarali ta'sir etuvchi muhim omildir.

Shu ma'noda ilmiy qadriyatlar mohiyatan insonlarda nazariy fikrlash qobiliyati va iste'dodini, olamning taraqqiyot qonunlarini mustaqil o'rganishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirishdan manfaatdorlik tuyg'usini ro'yobga chiqarish, falsafiy ilmiy merosni chuqur o'rganish, ilmiy kashfiyotlar yaratishga da'vatkor g'oyalar, fundamental asarlar, shuningdek, ilmiy muassasalar, tadqiqotchi olimlar jamoasi, majmuuni nazarda tutadi.

Ilmiy qadriyatlar ta'lif-tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu bois ilmiy muassasalar qadriyat yaratuvchi, uni taqsimlovchi, keljak avlodga etkazuvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy qadriyatlarni yaratishda, bilim asoslari, fan yangiliklarini insonlar tafakkuriga singdirish, insonlarda ilmiy tafakkur va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish tizimi bosqichma-bosqich va uzuksizlik tizimini taqozo etadi.

Yangi taraqqiyot bosqichi nuqtai nazaridan qaralsa, ularning asosiy maqsadi – raqobatbardosh, o'z ixtisosligiini puxta egallagan, omilkor va tashabbuskor insonni shakllantirishdan iboratdir. "Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lif sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi" ekan, tabiyki, uning intellektual madaniyatini qaror tortirish ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sanaladi. Shunday qilib, ilmiy qadriyatlar insonning ma'naviy va axloqiy yuksalishida muhim o'rin tutadi. Ilmiy qadriyatlar va ma'naviyatning o'zaro uyg'unligi har qanday jamiyatning tez sur'atlarda yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ilm-fanning insonga, uning axloqiy qarashlariga va ma'naviy kamolotiga ta'siri juda katta. Ilm, insonni vatanparvar, haqiqatgo'y, iymon-e'tiqodli va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishning asosiy omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.Shermuhammedov S. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. –T.: Fan. 2005. B- 42
2. Ibn Sino. Kitob ash-Shifo Xilol-Nashr. 2022 u. 3-tom, 213-bet
3. Ibn Rushd. Fasl al-Maqol Xilol-Nashr. 2021 u. 2-tom, 145-bet.
4. K. G. YUNG. Psixologiya i religiya «AST». 2023g. S- 142.
5. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.–Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.42- bet.